



## BÓLAJAK BOSHLANGÍCh SINF ÓQITUVCHILARINING MANTIQIY TOPSHIRIQLARNI ÓRGATISHIDA AKTDAN FOYDALANISH

Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna

Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bu maqolada har bir bólajak boshlangích sinf óqituvchilariga AKT dan foydalanib, dars ótishida Plickers dasturidan qanday foydalanish mumkinligi kórsatib berilgan.

**Аннотация:** Эта статья показывает каждому будущему учителю начальной школы, как использовать Plickers в своем обучении ИКТ.


**Abstract:** This article shows every prospective primary school teacher how to use Plickers in their ICT teaching.

**Kalit sózlar:** AKT, Plickers.com sayti, javob varaqalari, Plickers ilovasi

Har bir bólajak boshlangích sinf óqituvchisi ijodkor bólishi va u har bir darsiga puxta tayyorgarlik bilan kelishi kerak chunki, har bir darsda takrorlanadigan bixillik óquvchining fanga qiziqishini susaytiradi va natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtida talim jarayonlarini bevosita axborot kommunikaciysi vositasi asosida tashkil etish davr talabiga aylanmoqda. Barcha umumtalim fanlarining turli bólimalariga oid nazorat testlarini kompyuter yordamida tuzish mumkin lekin bu testlarni dars davomida óquvchilarga test yozilgan varaqlarni tarqatmagan holda olish imkoniyati mavjudligini har bir bólajak bashlangích sinf óqituvchisi bilib olishi kerak. Bu nazariy olgan bilimlarini maktab óqituvchisi bólgan vaqtida amaliy bajara olishi uning darsda vaqtini tógrí taqsimlay olishiga va óquvchilarning bilimini tez vaqt oraliğıda baholay olish imkoniyatini yaratadi. Bunday testlarni kompyuter dasturlaridan biri Plickers dasturi orqali tuzish mumkin.

Eng avvalo, Plickers dasturidan qanday foydalanish kerak? Buning uchun bizga internet tarmoǵiga ulangan kompyuter, javob varaqchalari, telefon, videoproektr yoki elektron doska kerak bóladi. Eng avvalo internet brauzerlaridan birini tanlaymiz masalan, *Google chrom*. Qidirish maydoniga *Plickers.com* deb saytning nomini yozamiz va quyidagicha ishchi oynasi paydo bóladi (1-rasm) va biz bu saytga azo bólishimiz kerak buning uchun **Sign in** tugmachasini bosamiz(2-rasm). Bu yerda biz Google akkauntimiz bilan a'zo bólishni tanlagan vaqtimizda, agar telefonimizda qanday akkaunt bilan foydalansak, shu akkaunt kiritilishi kerak bóladi(3-rasm).



1-rasm



2-rasm




3-rasm

Akkaunt orqali kirgandan keyin, dasturning ishchi oynasi paydo bôladi. U yerdan chap tomondagi oynadan **New class** buyruğini tanlaymiz. Paydo bôlgan muloqot darchasiga sinflarni ketma - ket kiritishimiz kerak. Biz agar 4 ta sinfni óqitadigan bolsak 4 tasini ham kiritishga bôladi va **Create class** tugmachasi bosiladi (4-rasm). Natijada 2-a sinf yaratildi yozuvi paydo bôladi. Bu yerdan **Add students** tugmachasini bosamiz (5-rasm) va bu sinfga óquvchilar ismi va shariflarini kiritamiz (6-rasm). Bu yerda 2 oyna bor. Chap tomondagi oynaga yozsak, óng tomondagi oynada kórib turishimiz mumkin. **Next** tugmachasi bosiladi. Paydo bôlgan oynachadan bizlar qaysi óquvchiga qaysi javob varaqasini berishni bilib olsak bôladi yani, dars jarayonida qóllanganimizda birinchi javob varaqni Umidaga, ikkinchisini Shaxnozaga va boshqa óquvchilarga ham tartib raqamidagi javob varaqlarini berishimiz zarur (7-rasm). Asosiysi adashmay berish kerak.



4-rasm



5-rasm



6-rasm



7-rasm

Agar adashib qolgan taqdiringizda sinfni tanlaysiz va **Print roster** (8-rasm) tugmachasini bosasiz shunda qaysi óquvchiga qaysi javob varaqni berish kerakligini oson bilib olishingiz mumkin (9-rasm). Agar kerak desangiz, qoǵozga chiqarib olishga ham bôladi.



8-rasm


## Календара 4-e sınıf

Aybek 3	Ulizada 4
Baxtgul 5	Umida 7
Shaxnoza 2	Ümida 1
Sultanbek 6	


9-rasm

Mana shu tarzda sinflar shakllantiriladi va qolgan sinflarning ham óquvchilarini shu tarzda yaratib chiqish kerak.

Endi har bir óquvchining javob varaqlarini olish kerak. Buning uchun óng va yuqori qismida ***Help→Get plickers cards*** tanlanadi (10-rasm). Natijada paydo bólgan oynadan ***Large font*** satrini tanlasangiz, A4 formattagi varaqqa 2 ta óquvchining javob varagini chiqarib berishi uchun (11-rasm). Boshqa qatorlarni tanlash óz ixtiyorингизда. Agar bir varaqni bir óquvchiga katta qilib chiqarib bermoqchi bolsangiz ***Jumbo - for a set of 63 oversized cards (one per page)*** satrini tanlasangiz bóladi. Tanlagan qatorimiz oxirida ***click here*** yozuvining ustiga kursorni olib borib, sichqonchamizning óng tomonini bosamiz va javob varaqlarni olish imkoniyatiga ega bólamiz.



10-rasm




11-rasm

Natijalarni qoǵozga chiqarish uchun avval javob varaqlarni saqlab olamiz. Qoǵozga chiqargandan sóng dars jarayonida bolalarga tarqatganda javob varaqida 1 soni kórsatilgan bolsa(9-rasm) 1-óquvchiga va hakazo tarqatish kerak. Xato berib qóyishga bómdaydi.



12-rasm




13-rasm

Endigi navbat óquvchilarga test tuzish jarayoniga keldi. Testlarni ham shu dasturda tuzishimiz kerak. Buning uchun 2-sinf Matematika darsligidagi Qiziqarli va mantiqiy topshiriqlar mavzusi misollarini tanladik. Albatta siz qaysi fandan bolsa ham bu usullardan foydalansangiz bóladi.



Buning uchun dasturning chap yuqori tomonidagi **New set** buyruğini tanlab olamiz. Paydo bólган oynaga testlarimizni kiritib boshlasak bóladi. Nafaqat sóz balki rasm, video, giflarni qóyish imkoniyatiga ham egamiz (14-rasm). Shuningdek, matematik formulalarni ham kiritish mumkin. Savol qóshmoqchi bolsak chap yuqori qismidan + belgisini bosish kerak bóladi. Savol tuzayotganda tógrı javobni ham belgilab ketish kerak (15-rasm). Javoblarni faqat 4 variatda emas balki ha yoki yóq variantda ham tuzishga bóladi.




14-rasm



15-rasm


Endi bu testlarni qaysi sinflarga olmoqchi bolsak, shu sinflarni belgilab ketish kerak bóladi. Buning uchun yuqori óng qismida **Add to queue** bólimidan sinflarni tanlaymiz. Bizda 2 sinflar 2 ta bólгandan keyin **Add to** bólimidagi a va b sinflarni tanladik va biz tanlagan sinflar shu yerda pastidagi **Currently in** bólimidan kórindi (16-rasm).



16-rasm



17-rasm




18-rasm

Dars jarayonida foydalanish uchun bizga telefon kerak bóladi. Telefonimizga **Plickers** ilavasini órnatib olamiz. Bizdan azo bólish kerakligi sóraladi va shu vaqtida biz avval test tuzib boshlagan vaqtida qanday akkautdan foydalangan bolsak, shu akkauntni yozishimiz shart. Sóng bizlar yaratgan sinflar paydo bóladi (17-rasm). Bundan biz qaysi sinfga test olmoqchi bolsak, shu sinfni tanlaymiz. Masalan, 2b sinfni tanlasak, bu yerda biz shu vaqtgacha boshqa sinflarga ham yaratgan testlarimiz kelib chiqadi. Biz ózimizga kerak testni tanlab olamiz. Shu vaqtida bizning kompyuterimizda ham xuddi telefonimizdagи test hosil bóladi (18-rasm). Agar kompyuter videoproektr yoki televizorga ulangan bolsa, óquvchilar testni barchasi kóra oladilar. Endi óquvchilar oldindan tarqatib berilgan javob varaqlarini foydalanish vaqtি keldi. Óquvchilar qaysi variantni tógrı deb hisoblasa, shu variantni yuqoriga qóyib óqituvchiga kórsatishi kerak (19-rasm). Rasmdan kórinib turganidek, óquvchining



sharifi oldida yashil yonib tursa, bu óquvchi savolga tógrí javob bergen, qizil yonib tursa esa xato javob bergenligini bilib olishga bóladi.



19-rasm

Óquvchilar bajarib bólishgach, óqituvchi telefonidan pastda joylashgan katta yumaloqni bosadi va óquvchilarning ismlari óng tomonda kórinib boshlaydi (20-rasm). Endi óqituvchi telefon orqali óquvchilar kórsatayotgan javoblarni aniqlaydi. Barcha óquvchilarining javoblarini tushirib bólгach stop tugmachasi bosiladi. Qaysi javobga necha odam javob bergani kórinib turadi. Keyingi savolga telefon orqali ótsak, óquvchilarga ham shu savol kórinadi. Shu tarzda javoblarini yana olish mumkin.



20-rasm

Bu test olish jarayoni yakunlangach shu vaqtning ózida olgan reyting balini kórish imkoniyatiga ega bólish mumkin. Undan keyin Boshlanǵich ishchi maydonga ótamiz va **Scorosheet** bólímimi tanlasak, sinflarning róyhati va óquvchilarning tóplagan bali kórinadi. Bu natijalarni kompyuterimizga saqlab olishga bóladi (21-rasm).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Siz óquvchilardan bir dars davomida ham test olishga ham tekshirishga ham natijalarni yozib ótirmasdan tayyor yuklab va chop etib olish imkoniyatlariga ham ega bólasiz. Axborot kommunikaciya texnologiyalarini dars ótish jarayonida mohirona qóllay olishingiz bu sizning vaqtingizni tejash shuningdek, vaqtingizni unumli sarf qilishingiz bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, hozirgidek texnologiya rivojlangan bir paytda AKTdan tógrí foydalana olish bu-davr talabi.

21-rasm

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. David Kent. Plickers and the pedagogical practicality of fast formative assessment. Teaching English with Technology journal on page 90-104 2019y.
2. L.Orınbaeva, Sh.Ismailov hám basqalar. Matematika 2 klass ushın sabaqlıq 187-188-sahifalar 2021.
3. <http://www.teachaholic.pro>
4. <http://www.plickers.com>
5. <http://expert.itmo.ru/plickers>